



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 300 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	
The Relationship Between Students' Learning Motivation and Academic Procrastination.....	209
<i>Odilbekov Mansurbek Maxmudjon ugli</i>	
"Beg'uborlik ovozi" va o'zini namoyon etish makoni.....	215
<i>Q. M. Ibadullayev</i>	
Формирование лингвокультурологи-ческой компетенции иноязычных студентов в цифровой образовательной среде	219
<i>Наталья Николаевна Розикова</i>	
Criteria, Indicators, and Levels for Developing Pre-Service EFL Teachers' Auditive Competence	223
<i>Alibekova Mahzuna Alisher kizi</i>	
Summary of the Cell Elements in Dental Science	229
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
A Customised Method for Treating Generalised Periodontitis and Predicting Cardiovascular Problems Using Salivary Proteomic Profiling	234
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
Avtomobilsozlik yo'nalishi talabalarida kommunikativ kompetensiyani raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	239
<i>G. Sh. Doniyorova</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish xususiyatlari	242
<i>Dusanov Shuxrat Abdiraakovich</i>	
Ijro etuvchi funksiyalar buzilishi va diqqat-yetishmasligi giperaktivlik buzilishi (DEHB): Barkli yondashuvi... ..	246
<i>Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna</i>	
Raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari.. ..	248
<i>Abdullayev Sherzodbek</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Hard Skills" va "Soft Skills" integratsiyasini ta'minlashning pedagogik-psixologik tizimi.....	251
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari.....	258
<i>Djumabayeva Janar Muratbayevna</i>	
O'zini o'zi tashkil etishni rivojlantirish pedagogik texnologiyasi	262
<i>Jo'rayeva Gulxayo Sabirovna</i>	
Raqamli va kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari: zamonaviy pedagogik modellar qiyosiy tahlili misolida.....	265
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	
Qoraqalpoq prozasining psixologik paradigmasi	269
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
The Relationship Between the Characteristics of Systematic, Logical and Creative Thinking in Students (Based on the Example of 7 th –9 th Grade Pupils).....	273
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida tyutorlar kasbiy salohiyatini oshirishning innovatsion metodik modeli	282
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	



Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	286
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili	293
Xalimova S. A.	

MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o'g'li

Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi

Pedagogika va psixologiya, ta'lim

texnologiyalari kafedrası p.f.f.d (PhD)., v.v.b dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish kursi tinglovchilarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, motivatsiya, empatiya, refleksiya, shaxslararo muloqot, guruhii hamkorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sir mexanizmlarining o'rnini tahlil qilingan. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv hamda ijtimoiy-psixologik trening texnologiyalari asosida kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning samarali usullari yoritilib, ularni malaka oshirish tizimiga joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, kurs tinglovchilari, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-psixologik mexanizm, shaxslararo muloqot, empatiya, refleksiya, guruhii hamkorlik, trening texnologiyalari, kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv, psixologik trening.

Abstract: This article presents a scientific, theoretical, and practical analysis of the socio-psychological mechanisms for enhancing the communicative competencies of professional development course participants. It examines the essence of communicative competence, its structural components, and its significance in improving professional performance. Particular attention is paid to the socio-psychological factors influencing the development of communicative competencies, including motivation, empathy, reflection, interpersonal communication, group collaboration, and social interaction mechanisms. The article also highlights effective approaches to enhancing communicative competencies through the competency-based approach and socio-psychological training technologies while substantiating the scientific and practical significance of their integration into professional development programs. The findings demonstrate that the systematic development of communicative competencies contributes to improving specialists' professional effectiveness, strengthening interpersonal interaction, and enhancing the overall quality of professional practice.

Key words: professional development, professional development course participants, communicative competence, socio-psychological mechanisms, communicative skills, interpersonal communication, empathy, reflection, group collaboration, training technologies, professional development, competency-based approach, psychological training.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы социально-психологические механизмы совершенствования коммуникативных компетенций слушателей курсов повышения квалификации. Раскрыты сущность коммуникативной компетентности, её структурные компоненты, а также значение для обеспечения эффективности профессиональной деятельности. Особое внимание уделено анализу социально-психологических факторов, влияющих на развитие коммуникативных компетенций слушателей, включая мотивацию, эмпатию, рефлексию, межличностное общение, групповое взаимодействие и механизмы социального взаимодействия. В статье освещены эффективные способы совершенствования коммуникативных компетенций на основе компетентностного подхода и социально-психологических тренинговых технологий, а также обоснована научно-практическая значимость их внедрения в систему повышения квалификации. Сделан вывод о том, что последовательное развитие коммуникативных компетенций способствует повышению профессиональной эффективности специалистов и совершенствованию качества их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: повышение квалификации, слушатели курсов повышения квалификации, коммуникативная компетентность, социально-психологические механизмы, коммуникативные навыки, межличностное общение, эмпатия, рефлексия, групповое взаимодействие, тренинговые технологии, профессиональное развитие, компетентностный подход, психологический тренинг.



KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda uzluksiz kasbiy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar malaka oshirish tizimining mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki samarali muloqot qilish, jamoada ishlash, nizolarni konstruktiv hal etish, ijtimoiy moslashuvchanlik va hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi kommunikativ kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Shu sababli malaka oshirish kurslari tinglovchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, shaxslararo munosabatlarni boshqarish hamda ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi integrativ sifatdir. Mazkur kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar, motivatsiya va shaxsiy fazilatlarining o'zaro uyg'unligi asosida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, malaka oshirish kurslari jarayonida tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish ularning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash va ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishi faqat pedagogik ta'sir bilan emas, balki shaxsning motivatsiyasi, empatiyasi, refleksiyasi, guruh hamkorligi, ijtimoiy faolligi va o'zaro muloqot tajribasi kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mazkur omillar kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning ichki mexanizmlarini tashkil etib, ularning kasbiy faoliyatdagi namoyon bo'lish darajasini belgilaydi.

Malaka oshirish tizimida tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini kompleks o'rganish hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asoslash zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, shaxslararo muloqot madaniyati, ijtimoiy identifikatsiya, guruh dinamikasi, emotsional intellekt va refleksiv faoliyatning kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishdagi o'rnini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish, ularning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish hamda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, rivojlanish bosqichlari hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar turli ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor amerikalik olim D. Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Olimning fikricha, kommunikativ kompetensiya shaxsning nafaqat til birliklarini bilishi, balki ulardan muayyan ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq va samarali foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv kommunikativ kompetensiyani faqat lingvistik bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy tajriba, muloqot madaniyati va vaziyatga mos xatti-harakatlar bilan bog'liq murakkab tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Keyinchalik M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiya nazariyasini rivojlantirib, uning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlardan tashkil topishini asosladilar. Ularning konsepsiyasiga ko'ra, kommunikativ kompetensiya samarali kasbiy muloqotni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va strategiyalar majmuasidan iborat bo'lib, shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarga moslasha olish imkoniyatlarini belgilaydi.

Shaxsning kommunikativ rivojlanishida K. Rogersning insonparvarlik nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. U empatiya, samimiylik va shaxsni so'zsiz qabul qilishni samarali muloqotning asosiy omillari sifatida e'tirof etadi. Rogersning fikricha, muloqot jarayonida empatik munosabatning mavjudligi shaxslararo ishonchni mustahkamlaydi, refleksiyani rivojlantiradi va hamkorlik samaradorligini oshiradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda D. Kolbning tajribaviy ta'lim modeli ham muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra, yangi bilim va ko'nikmalar bevosita amaliy tajriba, kuzatish, refleksiya va faol eksperiment orqali shakllanadi. Mazkur yondashuv trening texnologiyalarining ilmiy asosini tashkil etib, malaka oshirish tizimida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligini asoslaydi. Shuningdek, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida kuzatish orqali o'rganish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'ziga ishonch kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida talqin etilgan. D. Goleman esa emotsional intellekt nazariyasida empatiya, emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalarni samarali muloqotning ajralmas tarkibiy qismlari sifatida izohlaydi.



Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarining kasbiy rivojlanishi, pedagogik muloqot madaniyati hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq malaka oshirish kursi tinglovchilarining kommunikativ kompetensiyalarini aynan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar asosida kompleks rivojlantirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois motivatsiya, empatiya, refleksiya, guruhii hamkorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va trening texnologiyalarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida tayyorlandi. Metodologik asos sifatida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish hamda shaxslararo muloqotning psixologik xususiyatlariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlaridan foydalanildi.

Mavzuning nazariy asosini D. Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyasi, B. Spitzberg va W. Cupachning kommunikativ kompetentlik modeli, K. Rogersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi, D. Kolbning tajribaviy ta'lim konsepsiyasi, K. Lewinning guruh dinamikasi nazariyasi hamda A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariyalar kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ilmiy asoslashda metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan tahlil qilinib, mavjud ilmiy yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Mazkur metodlar mavzuning nazariy asoslarini yoritish, turli ilmiy qarashlarni qiyoslash va ularni yagona konseptual yondashuv asosida umumlashtirish imkonini berdi. Kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yoritishda motivatsiya, empatiya, refleksiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir, guruhii hamkorlik, kommunikativ faollik va kasbiy refleksiya kabi omillarning o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv malaka oshirish kurslari tinglovchilarining kasbiy rivojlanishida kommunikativ kompetensiyalarning shakllanish va takomillashish jarayonini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kommunikativ kompetensiya zamonaviy mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarining kasbiy faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, samarali muloqot, hamkorlikni yo'lga qo'yish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish hamda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish darajasi kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanganlik holatiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish jarayoni faqat bilimlarni oshirish bilan cheklanmay, balki tinglovchilarning ijtimoiy-psixologik sifatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning muhim ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan biri motivatsiya hisoblanadi. Kasbiy rivojlanishga ichki ehtiyojning mavjudligi tinglovchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'z ustida ishlashga undaydi hamda kommunikativ faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan tinglovchilar muloqot jarayonida faolroq ishtirok etadi, fikr almashishga ochiq bo'ladi va kasbiy hamkorlikni samarali tashkil eta oladi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida empatiya alohida o'rin egallaydi. Empatik munosabat suhbatdoshning hissiy holatini anglash, uning fikr va qarashlarini to'g'ri qabul qilish hamda samarali o'zaro ta'sirni tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida empatiyaning rivojlanganligi tinglovchilarning jamoada ishlashi, nizolarni konstruktiv hal etishi va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar davomida refleksiya kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning muhim mexanizmlaridan biri ekanligi aniqlandi. Refleksiv yondashuv tinglovchilarga o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Natijada o'z-o'zini baholash, kasbiy o'sishga intilish va muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayoni izchil tus oladi. Shuningdek, guruhii hamkorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sir kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Trening mashg'ulotlari jarayonida tinglovchilarning kichik guruhlarda ishlashi, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilishi, o'zaro fikr almashishi va tajriba almashishi kommunikativ faollikni oshirish bilan bir qatorda, kasbiy hamkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Guruhii muloqot jarayonida shakllanadigan ijobiy psixologik muhit tinglovchilarning o'z fikrini erkin bayon etishiga, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilishiga hamda o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishda ijtimoiy-psixologik trening texnologiyalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Rolli o'yinlar, vaziyatli topshiriqlar, guruhii munozaralar, "aqlii hujum", refleksiya va teskari aloqa metodlari tinglovchilarning kommunikativ tajribasini boyitadi, ularda faol tinglash, samarali fikr almashish, empatik munosabat va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metodlar ishtirokchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali kommunikativ kompetensiyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Olib borilgan tahlillar asosida kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning konseptual modeli motivatsiya, empatiya, refleksiya, kommunikativ faollik, guruhii hamkorlik va trening texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlarning uyg'unligi tinglovchilarning kasbiy muloqot madaniyatini yuksaltirish, kommunikativ faoliyat samaradorligini oshirish hamda malaka oshirish jarayonining sifatini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish uzluksiz, tizimli va maqsadli tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik ta'sirlar orqali samarali amalga oshiriladi. Bunda trening texnologiyalaridan kompleks foydalanish, tinglovchilarning shaxsiy faolligini qo'llab-quvvatlash, refleksiv yondashuvni rivojlantirish hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini yaratish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Malaka oshirish kursi tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish zamonaviy uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiyalar mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, jamoada ishlash hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan konstruktiv hamkorlikni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada olib borilgan ilmiy tahlillar kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning asosini motivatsiya, empatiya, refleksiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir, guruhii hamkorlik va kommunikativ faollik kabi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar tashkil etishini ko'rsatdi. Mazkur mexanizmlar o'zaro uzviy bog'liq holda tinglovchilarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish hamda kasbiy kompetentligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik treninglar tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Interfaol metodlardan foydalanish tinglovchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, kommunikativ tajribasini boyitadi, mustaqil fikrlash, konstruktiv muloqot olib borish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Shu bois malaka oshirish kurslari mazmuniga kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini tizimli ravishda integratsiya qilish, zamonaviy interfaol ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish hamda tinglovchilarning kommunikativ rivojlanishini muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mutaxassislarning kasbiy kompetentligini yuksaltirish, ta'lim sifati va psixologik-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning raqamli ta'lim muhiti, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari hamda masofaviy malaka oshirish tizimida qo'llaniladigan innovatsion ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini chuqur o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, Albert. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. 617 pp.
2. Goleman, Daniel. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995. 352 pp.
3. Hymes, Dell H. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. 293 pp.
4. Kolb, David A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. 256 pp.
5. Lewin, Kurt. Resolving Social Conflicts and Field Theory in Social Science. New York: Harper & Row, 1958. 330 pp.
6. Raven, John. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H. K. Lewis, 1984. 251 pp.
7. OECD. Teachers and School Leaders as Lifelong Learners: TALIS 2020 Results. Paris: OECD Publishing, 2020. 238 pp.
8. Андреева, Г. М. Социальная психология. Москва: Аспект Пресс, 2018. 363 с.
9. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции как результат современного образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 42 с.
10. Леонтьев, А. А. Психология общения. Москва: Смысл, 1999. 365 с.
11. Митина, Л. М. Психология профессионального развития личности. Москва: Академия, 2019. 400 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.